



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

367-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori ijrosi haqida” 328-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori ijrosi haqida” 328-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori ijrosi haqida” 328-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida:

yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o‘rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta‘lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma‘rifiy uchrashuv va suhbatlar o‘tkazish;

keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, “yashil” varaqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yoʻlidagi doimiy saʼy-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targʻibot ishlarini yanada kuchaytirish;

yurtimizda doʻstlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagi yaxshi qoʻshnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtibori yuksalayotgani, doʻst va hamkorlarimiz safi kengayib borayotganini chuqur tahlillar asosida koʻrsatib berish;

navqiron avlodga Yangi Oʻzbekistonning kelajagi sifatida alohida eʼtibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash boʻyicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlariga oʻqitish, bandligini taʼminlash, boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yurtimizda shakllangan samarali va taʼsirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sogʻliqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va sanʼat, sport sohalarini rivojlantirish, nuroniy va xotin-qizlarga doimiy gʻamxoʻrlik koʻrsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik boʻyicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohida aʼtibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchlik kafolati boʻlgan Oʻzbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targʻib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama eʼzozlash, “Mehribonlik”, “Sahovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftariga kiritilgan hamda koʻmakka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va maʼnaviy yordam berish bilan bogʻliq xayriya tadbirlarini oʻtkazish;

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yoʻlda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatagʻon qurboni boʻlgan otabobolarimizning xotirasini yod etish boʻyicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining oʻttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish boʻyicha tuman komissiyasining (keyingi oʻrinlarda – Tuman komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman komissiyasi (J.Raximov):

bir hafta muddatda “Bir boʻlsak - yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!” degan bosh gʻoyani oʻzida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar hamda targʻibot-tashviqot ishlari dasturini ishlab chiqib, tasdiqlatish uchun tuman hokimiga kiritsin. Mazkur dasturni “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili” boʻyicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uygʻun holda tayyorlasin;

Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining oʻttiz uch yillik bayrami (keyingi oʻrinlarda – Mustaqillik bayrami) tuman markazida, shuningdek, barcha qishloq va mahallalarda munosib nishonlanishini taʼminlasin;

hududlarda keng aholi qatlamlari o'rtasida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o'tkazish maqsadida atoqli ilmfan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etish hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishini ta'minlasin;

Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi yuzasidan har bir hudud, boshqarma va tashkilot rahbarlarining hisobotlarini o'z yig'ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

5. Tuman hokimining maslahatchisi Sh.Turgunbayeva:

Madaniyat bo'limi (R.Xoliqova), Ma'naviyat va ma'rifat tuman markazi (D.Jo'raboyeva) bilan birgalikda bir hafta muddatda tumanda Mustaqillik bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin hamda uni yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralari ko'rsin;

6. O'tkaziladigan bayram tadbirlari – tegishli mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan moliyalashtiriladi.

7. Mingbuloq gazetasi (Q.Akbarov) va tuman hokimligi axborot xizmati (Sh.Kenjayeov) tumanda Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi v.v.b**



**B.Muydinov**

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 26-iyuldagi  
367-6-81-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga  
tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining  
TARKIBI**

<b>B.Muydinov</b>	-	Tuman hokimi v.v.b, <i>komissiya raisi</i>
<b>J.Raximov</b>	-	Tuman hokimining o‘rinbosari, <i>tashkiliy qo‘mita raisining o‘rinbosari</i>
<b>U.Narmatov</b>	-	Tuman hokimligining tashkiliy kadrlar guruxi raxbari, <i>tashkiliy qo‘mita raisining o‘rinbosari</i>
<b>D.Karimov</b>	-	Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
<b>R.Xoliqova</b>	-	Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i, tashkiliy <i>qo‘mita raisining o‘rinbosari</i>
<b>Z.Jo‘raboyev</b>	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
<b>A.Axunov</b>	-	1-sonli kasb-hunar maktabi direktori
<b>Z.Ergasheva</b>	-	2-sonli kasb-hunar maktabi direktori
<b>M.Mamasobirov</b>	-	Yoshlar ishlari tuman bo‘limi boshlig‘i
<b>E.Ermirzayev</b>	-	Tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi mudiri
<b>O.Qo‘ldoshev</b>	-	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
<b>D.Mamajonov</b>	-	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi
<b>B.Abdullayev</b>	-	Milliy gvardiya tuman bo‘limi boshlig‘i
<b>D.Jo‘raboyeva</b>	-	Tuman Ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i
<b>O.Qodirov</b>	-	Tuman maxallalar uyushmasi bo‘limi boshlig‘i

*Izoh: Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibigi ushbu lavozimga tayinlangan shaxslar kiritiladi.*